

TERMIN TUSHUNCHASI VA UNING TAVSIFI TADQIQI MASALASI

*Sevinova Diyora Uyg'un qizi
Shahrisabz Pedagogika instituti*

Annotatsiya: Ushbu maqolada terminologiya sohasiga oid terminning til sohasidagi o'rni va ahamiyati keltirilgan. termin tushunchasi haqida o'zbek va chet el olimlarining bildirgan fikr va mulohazalari yoritilgan.

Kalit so'zlar. Terminologiya, termin, terminologik maydon

Terminologiyaga oid masalalar tilshunoslikda nazariy jihatdan ancha o'rganilganiga qaramay, uning ta'rifi, terminlar va termin bo'limgan so'zlarning o'zaro farqlanuvchi belgilari, terminlarning tarkibi singari masalalari haqida bir muncha bahslar mavjud. Jumladan birgina "termin" tushunchasining o'zi ko'plab ta'riflarga ega bo'lib, ularda terminning xususiyatlari turlicha belgilanadi. Ba'zi tadqiqotchilar terminning nominativligi (atash, nomlash xususiyati)ni birinchi o'ringa qo'yadi: "Termin sifatida namoyon bo'lувчи со'знинг алоҳида, максус вазифаси аташдир". Eronshunos olima H. Mirzaxmedova keltirishicha, ko'pchilik tilshunoslar shuni to'la asos bilan qayd etadilarki, termin, eng avvalo, tilning leksik sistemasi va eng huquqli a'zosi hisoblanadi; u bir ma'noli bo'lishi hamda fan, texnika va madaniyatning u yoki bu sohasidagi muayyan tushunchani aniq ifoda etishi zarur. Terminologik sistemalar yagona lisoniy sistema doirasida yuzaga keladi va rivojlanadi hamda uning umumiyligini qonuniyatlariga bo'ysunadi. Termin bilan so'z o'rtasida o'tib bo'lmas chegara yo'q, ular o'rtasida "shaklan ham, mazmunan ham" jiddiy bir tafovut yo'q, aslida termin ham so'zdir, faqat "so'zning maxsus, alohida turidir"¹⁸. Shunday qilib termin oddiy so'z bo'lib, "tilga aloqador biron-bir hodisa unga begona emas". Biroq, shu bilan birga, "terminlar alohida vazifa bajaruvchi so'zlardir". Ular maxsus belgilarga ega bo'ladi. Bu, birinchi navbatda, terminning oddiy so'zga nisbatan o'ta tor ma'noga ega ekanligi, ma'no chegaralarining ancha aniq va ravshanligi bilan izohlanadi. Sinonimiya, ayniqsa, ko'p ma'nolilikning bo'lmasligi hamda bir ma'nolilikka intilish terminning o'ziga xos xususiyatlaridan sanaladi. Z. Mirahmedova o'z tadqiqotida ta'kidlashicha, "Termin" tushunchasiga yuklangan mazmun quyidagi belgilarga asoslanishi kerakki, bu termini umumistemoldagi so'zdan farqlash uchun yetarlidir: 1) termin-umumadabiy tilining muhim leksik qatlamlaridan biri bo'l mish fan, texnika, ishlab chiqarish, kasb-hunarlargacha oid tushunchalarni ifodalovchi maxus lug'aviy birlikdir; 2) termin maxsus narsa ashyo yoki mavhum tushunchaning o'ziga xos nomidir; 3) termin uchun muayyan ta'rif zarur, bu ta'rif tegishli tushuncha mazmunini aniqroq ifodalashga, tushunchalarning birini ikkinchisidan chegaralab ajratishga, ayni mahalda, ma'llum tushunchani muayyan tasnify qatorga joylashtirishga imkon yaratuvchi belgilarni ravshanroq ko'rstishga yordam beradi" Terminologik sistemalar fan taraqqiyoti bilan birgalikda rivojlanib boradi. Umumistemoldagi so'zlardan farqli ravishda terminlarning qo'llanishi ma'lum nazorat ostida bo'ladi. "Terminlar paydo bo'lib qolmaydi", aksincha, ularning zaruriyati anglangani holda, "o'ylab topiladi", "ijod qilinberadi. Shuningdek, oddiy so'zdan farqli ravishda terminning ma'nosi konteksga bog'liq bo'lmaydi, maxsus so'z-termin

o‘z terminologik ma’nosida va o‘z “terminologik maydoni”da qo‘llanar ekan, uning ayni ma’nosi saqlanib qolaveradi. Terminning tuzilishiga ko‘ra, ya’ni uni necha qismdan iborat bo‘lishi – ixcham yoki noixchamligi ham bahstalab masalalardan bo‘lib, bu hodisaning ijobiliy yoki salbiy ekanligi haqida aniq bir fikr aytilmagan. Ma’lumki, terminga qo‘yilgan, lekin amalda har doim ham erishib bo‘lmaydigan talablardan biri uning ixchamligidir. Hatto, terminning dastlabki ta’riflarida ham termin yakka so‘z sifatida, shunda ham, asosan, ot turkumiga mansub so‘z sifatida qaralgan. Keyingi yillarda qator mualliflar tomonidan termin haqida fikrlar boyitib borildi.

Terminni notermindan farqlashning muhim vositasi uni ilmiy asosda ta’riflash mumkin, mumkin emasligidir»². V.G. Gak terminning yangicha ta’rifini berib, uning mohiyatini ohib beradi hamda terminning til lug’aviy tizimidagi o‘rnini aniqlaydi. U ilmiy adabiyotlarda terminni lug’aviy birliklarning alohida turi sifatida qaralishiga e’tiroz bildirib, «termin – funktsiya, lug’aviy birlik qo‘llanishining bir ko’rinishi»³ degan fikrni bildiradi. Uning yozishicha, nimanidir ifodalaydigan va tushunchalar qatorida muayyan o‘rinni egallay oladigan har qanday lug’aviy birlik termin bo‘lishi mumkin. Shuningdek, ishda terminlashmagan va terminlashgan leksika orasidagi munosabat turlari ifoda plani nuqtai nazaridan o‘rganilgan. Mumkun deb yozgan edi Z.Xarris va I.F.Frizyslar. Ular deskriptiv lingvistika tarafdarlaridan bo‘lib, so‘z ifodasini quyidagicha ta’riflaydilar: “So‘z ifodasi insonning har qanday nutqi bo‘lib, u sukutdan oldin yoki keyin ifoda etilishi mumkin”. Fanning har bir bo‘limi yoki maktabi o‘z tabiatи va metodlariga moslab maxsus terminologiyani rivojlantiradi. Bunday maxsus terminologiya ilmiy izlanishning muhim qismi bo‘lib, o‘ta muhim ahamiyatga ega. Chunki u rivojlanishga katta hissa qo‘shadi. Yangi texnika vositalari qaysi sohaga ko‘proq kirib kelgan bo‘lsa, shu soha terminologiyasi to‘xtovsiz ravishda kengayib bormoqda. Ana shunday sohalardan biri bugungi kitobatchilik ishi bilan shug‘ullanuvchi poligrafiya-nashriyotchilik sohasidir. Mazkur soha taraqqiyotiga e`tibor bersak, bu sohaga texnik vositalarning kirib kelishi, asosan, yigirmanchi asr boshlariga to‘g‘ri keladi. Lekin uning eng taraqqiy etgan davri bugungi kundagi holatidir. Hozirgi zamonaviy poligrafiya-nashriyotchilik tarmog‘i hujatlarni tayyorlash va ularning nusxalarini ko‘paytirish, kitob holiga keltirish jarayonlarini o‘zida mujassamlashtirgan texnik vositalar qo‘llanadigan etakchi sohalardan biriga aylandi. Natijada, ushbu soha terminologiyasiga juda ko‘plab yangi tushunchalar va ular bilan birga yangi ilmiy-texnikaviy terminlar ham kirib kelmoqda. Termin haqida bildirilgan fikr xususiyatlari namoyon bo‘ladi: 1) tizmulohazalar umumlashtiriladigan bo‘lsa, uning quyidagi imlilik; 2) ta’rifning mavjudligi; 3) mazkur terminologik maydon doirasida monosemiyaga moyillik; 4) uslubiy betaraflik. Har qanday termin o‘zida ana shu xususiyatlarni mujassam etgan bo‘lishi shart. Terminologiyaning fan sifatida tarkib topishi avstriyali k O.V. Nubasov va rus olimi D.S. Lottening dastlabki ishlariga borib taqaladi. Hozirgi paytda Avstriya, Germaniya, Frantsiya, Rossiya, Chexiya kabi mamlakatlarda terminologiya maktablari yuzaga kelgan. Hozirgi paytda terminologiyada ilmiy tadqiqotlarning b ir necha mustaqil yo‘nalishi yuzaga kelgan. Bular maxsus leksika taraqqiyoti va qo‘llanishi qonuniyatlarini o‘rganadigan nazariy terminologiya; termin va terminologiyadagi xato va kamchiliklarni bartaraf etish, termin va terminologiyani

tavsiflash, baholas h, tahrir qilish, tartibga solish, yaratish, qo'llash va tarjima qilish bo'yicha tamoyil va tavsiyalar ishlab chiquvchi amaliy terminologiya. Ma'lumki, tillarda turli tipdagi lug'atlarning assosiy turi izohli lug'atdir. Ma'lumki, har bir fan sohasining rivojlanish va takomillashuv darajasi shu soha terminologiyasining qay darajada taraqqiy etganligi, shuningdek, tartibga solinganligi kabi belgilar bilan ham uzviy bog'liqdir. Chunki ilmiy adabiyotda qo'llanadigan termin yoki uning ifoda shakli aniq va ravshan bo'lmas ekan, unda, albatta, chalkashlik, noaniqlikkabi salbiy holatlar saqlanib qolaveradi. Shu bois, V.P.Danilenko ta'kidlaganidek, har bir fan yoki sohaning taraqqiyot ko'rsatkichi shu soha terminologiyasining «qat'iy ilmiy terminologiya»ga ega ekanligi bilan ham belgilanadi. V.P.Danilenko bu yerda «qat'iy ilmiy terminologiya» tushunchasini biron bir sohaviy terminologiyaning mazkur fan sohasi taraqqiyoti bilan uyg'unlashuvi, sohaviy terminologiyaningayni sohaga oid tushunchalarni ifodalashdagi hamohangligi, yaratilgan va muomalada bo'lib turgan terminologiyaning muayyan fan tili bilan mos kelishi kabi holatlarni nazarda tutadi. Terminlarning aniqligi va qat'iy lashishi shu millatning fani, maorifi, madaniyati darajasini ko'rsatadi. Atamalarning rivojlanishi, tartibga solinishi fanning har xil sohalarida turlicha bo'lib, ma'lum fanning taraqqiyotiga bog'liq. Bu taraqqiyot to'xtovsiz bo'lgani uchun yangi atamalarning kelib chiqishi, tartibga tushishi ham uzlusiz bo'ladi. Umuman, ona tilida atamalarning puxta ishlanishi, tartibga solinishi darslik va qo'llanmalar tuzish uchun ham, ona tilida dars olib borish uchun ham zarur bo'lgan manbadir. Shu boisadan bugungi o'zbek tilshunosligida terminologiya masalariga ahamiyat yildan yilga takomillash bormoqda. Zeroki, atamalarning ishlanmaganligi va tartibga solinmaganligi nutq uslubiga ham ta'sir ko'rsatadi. Terminologiya voqelikni tushunishning ma'lum bir belgilangan sitemasini ifodalab, intelektual aloqa kanalining biri hisoblanadi. Vinogradovning fikriga ko'ra "Terminlarni yaratish va belgilashning ikki tomoni, ikki nuqtai nazari mavjud: til strukturasi va tushunish, semantic shartli ravishda ilimdagi u yoki bu tushunish sistemasining rivojlanishi" deya izoh beradilar

Tilshunoslikda terminlarning o'zgarishi hamda yangi terminlarning paydo bo'lishi fan va texnika taraqqiyoti bilan uzviy bog'liqdir. Bu haqda tilshunos olim L.I.Bojno quyidagilarni ta'kidlaydi: «Texnikataraqqiyoti ta'sirida terminologiya o'zaro aloqador ikki qonuniyat asosida, birinchidan, ilmiy-texnika progressi qonuniyatlari bilan, ikkinchidan, til rivojlanishining umumiyligini qonuniyatlari bilan bog'liq ravishda o'zgarib boradi».

O'zbek tili terminologiyasining rivojiga salmoqli hissa qo'shgan olimlardan biri professor Renat Doniyorov hisoblanadi. Uning "O'zbek tili texnik terminologiyasining ayrim masalalari" (1977) kitobida o'zbek tili texnik terminologiyasini tartibga solish, undagi qator chalkashliklarning oldini olish kabi masalalar o'rinni olgan. Mazkur ish texnikterminologiyani tadqiqqilish ishiga katta hissa bo'lib qo'shildi deyish mumkin. N.Ikromova o'zining "O'zbek taomlari leksikasi" ishida esa o'zbek taomlari nomlarining lisoniy xususiyatlari haqida so'z yuritadi. Shu bilan birga, o'zbek tili leksikasi masalalari "Hozirgi zamon o'zbek tili",

XX asrning 30-yillardan boshlanganligi manbalarda qayd qilinadi. Xususan, tilshunoslik terminlari bo'yicha ham tadqiqotlar amalga oshirilgan. Buning natijasida akademik A.Hojiyevning "Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati" yaratilib barcha

tilshunoslik terminlari tadqiqotlari uchun beminnat xizmat qilib kelmoqda. Hamidulla Dadaboyevning “O’zbek terminologiyasi “kitobi ham bu soha boyicha muhim manba hisoblaniladi. O’zbek tili terminologiyasining rivojiga salmoqli hissa qo’shgan olimlardan biri professor Renat Doniyorov hisoblanadi. Uning “O’zbek tili texnik terminologiyasining ayrim masalalari” (1977) kitobida o’zbek tili texnik terminologiyasini tartibga solish, undagi qator chalkashliklarning oldini olish kabi masalalar o’rin olgan. Mazkur ish texnik terminologiyani tadqiqqilish ishiga katta hissa bo’lib qo’shildi deyish mumkin. N.Ikromova o’zining “O’zbek taomlari leksikasi” ishida esa o’zbek taomlari nomlarining lisoniy xususiyatlari haqida so’z yuritadi. Shu bilan birga, o’zbek tili leksikasi masalalari “Hozirgi zamon o’zbek tili”,

XX asrning 30-yillaridan boshlanganligi manbalarda qayd qilinadi. Xususan, tilshunoslik terminlari bo'yicha ham tadqiqotlar amalga oshirilgan. Buning natijasida akademik A.Hojiyevning “Tilshunoslik terminlarining izohli lug’ati” yaratilib barcha tilshunoslik terminlari tadqiqotlari uchun beminnat xizmat qilib kelmoqda.

Foydalilanigan adabiyolar ro'yhati:

1. Mengliyev B., Sayfullayeva R. Va boshq. Milliy tilshunoslik mustaqil Rivojlanish yo‘lida // “Ma’rifat” gazetasi, 2007 yil 21 may;
2. Safarov SH. Pragmalingvistika. –T.:Fan, 2008;
3. Safarov SH. Kognitiv tilshunoslik. –T. Fan, 2007;
4. Toirova G., Safarov SH. Nutqni sotsiopragmatik o‘rganish asoslari. – Jizzax:NS, 2006.
5. Ким В.Н., Ким Т.С. Социально-политическая терминология.–Т., .2009. С.
6. Nurmonov A. Hozirgi O’zbek adabiy tili. –T.: Sharq, 2002. –В. 62-63.
7. Danilenko V.P. Русская терминология: Опыт лингвистического Описания. - М.:Наука, 1977. -S.157
8. Lotte .D.S. Основы построения научно-технической Терминологии. Вопросы теории и методики. М., 1961.– с. 29.
9. Kalilin.A..B. Лексика русского языка:, 1971. – с. 141.
10. Doniyorov. R.O’zbek tili texnik terminologiyasining nazariy masalalari.Toshkent.Fan;1977.